



10-SINF O'ZBEK TILI DARSIDA "TOMARIS" VA "SHIROQ" AFSONALARINING O'QITILISHIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Shaxobiddinova Zeboxon Adil qizi

Yangiyo'l tumanidagi 45-umumiy o'rta ta'lim
maktabining 10-sinf o'quvchisi
tel:+998 (97) 776 -51-07
m ail: olim.shaxobiddinov@icloud.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378494>

Annotatsiya: Mazkur maqolada "To'maris" va "Shiroq" afsonalarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'z: folklor, afsona, vatanparvarlik g'oyasi, massaget; To'maris, Shiroq, interfaol metodlar, "Klaster", "Aqliy hujum"

O'zbek xalqining boy ma'naviy merosi, jumladan, afsonalar — yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat, adolat va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vositadir. "To'maris" va "Shiroq" afsonalari o'zbek adabiyoti darslarida tarixiy-badiiy manba sifatida alohida o'rin tutadi. Bu afsonalar orqali o'quvchilar xalqning ozodlik uchun kurashi, erk va g'urur tuyg'usini chuqur anglaydi. Bugungi ta'lim tizimida interfaol metodlardan foydalanish dars jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni faol, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxslar etib shakllantiradi. Shu boisdan, mazkur afsonalarni o'qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

"To'maris" afsonasi vatanparvarlik g'oyasi ilgari surilgan afsonadir.

Miloddan avvalgi VI asrda Amudaryo yoqalarida massagetlar qabilasi yashagan. Ularga To'maris ismli ayol boshchilik qilgan. Afsona To'marisning o'g'li Sparganesning uylanish to'yi bilan boshlangan. Bu quvonchli kunlarning birida: Eron shohi Kir II massagetlarni o'ziga qaram qilish niyatida To'marisga uylanmoqchi bo'lib, sovchilar yuborgan. To'maris Kirning asil maqsadini tushunib, davlat arkonlarini yig'ib, kengash o'tkazadi. Ular Kir II ga qarshi kurashishni afzal ko'rishadi. To'maris unga rad javobini beradi. Kir II massagetlar ustoga hujum boshlaydi, lekin jangda Kir II yebgilgach, hiyla yo'lga o'tadi. Sahroda dasturxonga noz-ne'matlar hamda sharob qo'yadi. Massaget jangchilari tuzoq ekanini o'ylamasdan dasturxon atrofida o'tirishib, ovqatlanishadi, sharoblardan ichib ko'rishadi va mast bo'lib qolishadi. Kir II ning askarlari ularni asir qilib oladi. Asirlar orasida To'marisning o'g'li sparganes ham bor edi. Sparganes Kir II dan qo'llarini kishandan yechib yubiorishini so'raydi va qo'llari yechilgan Sparganes yonidagi hanjarni olib, o'zini o'zi nobud qiladi. Bu xabarni eshitgan To'maris g'azablanib, qabiladoshlari bilan maslahatlashib, Kir II ga maktub yozib jo'natadi:

"Ey, shoh! Qilayotgan ishingni to'xtat! Hali sen boshlagan ishingni qanday tugashini bilmaysan-ku! Qo'y, sen o'z yuftringda podsholik qilaver, bizni ham o'z holimizga qo'y. lekin bilaman, baribir nasihatimni I qabul qilmaysan, chunki senga tinchlik, osoyishtalikdan ko'ra mo'may boylik kerak. So'zimizga quloq solging kelmasa, bilganingni qil. Agar urushmoqchi bo'lsang, bizga bitta imkon ber. Odamlarimizni daryo bo'yidan uch kunlik yo'lga cho'l ichiga olib ketaylik. Keyin qo'shning bilan bostirib kiraver. Agar biz bilan daryo qirg'og'ida urushmoqchi bo'lsang, bunga ham qarshi emasmiz. Faqat nomardlik qilma."

Kir II ning lashkarboshisi Kryoz massagetlarning maktubidagi taklifiga rozilik bildiradi. Massagetlar uch kunlik yo'l bosib, cho'lga chekindilar. Shundan keyin Kir II ning qo'shinining bir qismini daryo bo'yida qoldirib, daryodan o'tdi va lashkari bilan massagetlarning qo'lga tushdi. Kir II jangda o'ldirilgach, To'maris uning boshini kesib, qon to'la meshga solishni buyuradi. Kir II ning boshiga qarab, "Bir umr qonga to'ymagan eding, endi esa to'yguningcha qon ichib yotaver", - deydi.

To'maris — **ayol jasorati, erkinlik va Vatanga sadoqat** ramzidir. U o'z xalqining tarixidagi birinchi ayol sarkardalardan biri sifatida yodda qolgan.

O'quvchilar "To'maris" afsonasini "Hikoya qilish metodi" asosida qayta hikoya qiladilar.

"To'maris" afsonasining mazmunini o'qitishda interfaol metodlar:

"To'maris" afsonasi orqali o'quvchilarga vatanparvarlik, jasorat va ayol siymosining ulug'vorligi singdiriladi. Darsda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

"Klaster" metodi — To'maris obraziga xos fazilatlarini tarmoq shaklida ifodalash orqali o'quvchilar tahliliy fikrlashga o'rganadi.

"Aqliy hujum" — "To'maris ornida siz bo'lsangiz, qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?" savoli asosida oquvchilarning mustaqil fikrlashlari rag'batlantiriladi.

"Insert" texnologiyasi — matnni tahlil qilish jarayonida belgilar orqali tushunilgan va tushunilmagan jihatlar ajratiladi. Bu metodlar o'quvchilarda matnni chuqur anglash, voqealarga baho berish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilar O'zbek tili darsligidagi mavzuga oid 3-4-mashqlarni bajaradilar.

"Shiroq" afsonasi mavzusi "Shiroq" haqida o'quvchilarga savollar beriladi:

- 1."Shiroq" afsonasi haqida bilarmidingiz?
- 2.Afsonaning asosiy g'oyasi nima haqida.
- 3.Shiroq qanday inson bo'lgan?

O'quvchilar savollarga javob berishga harakat qiladi va savollarga javob berishadi. O'qituvchi Shiroq va u haqidagi afsonani o'quvchilarga so'zlab beradi.

Shiroq — qadimiy Turon xalqining qahramoni. Shiroq nomi birinchi marta yunon tarixchisi va notig'i Poliyenning "Harbiy hiylalar" asarida tilga olingan. Eron davrida yashagan, sug'diy (yoki ba'zi manbalarda so'g'diyona yoki sak) qahramon. U o'z yurtini dushmandan himoya qilish uchun o'z hayotini qurbon qilgan.

□ Afsona mazmuni:

Fors podshosi Doro I (Doro Darayavush) O'rta Osiyoni bosib olmoqchi bo'ladi. Sak qabilalarining oqsoqoli Sakfar, Omarg va Oamiris fors qo'shinini yengish uchun harbiy kenshash o'tkazayotganda ularning huzuriga oddiy otboqar Shiroq kelib, o'z rejasini bayon qilgan. Rejaga ko'ra, Shiroq o'z xalqining dushman bilan kurashish imkoniyati yo'qligini biladi va quloq va burnini kesdirib, harbiy hiyla ishlatadi:

U dushman oldiga borib, go'yoki o'z xalqiga xiyonat qilmoqchi bo'lganday ko'rinadi. Doro unga ishonadi, u esa ularni cho'l orqali olib borib, suvsiz sahroda adashtirib yuboradi. Natijada dushman qo'shini chanqoqdan halok bo'ladi. Shirok esa o'zi ham o'sha sahroda jon beradi, ammo yurtini saqlab qoladi.

📖 Ma'nosi:

Shiroq — fidoyilik, vatanparvarlik va o'z jonini xalq yo'lida qurbon qilish timsolidir.

“Shiroq” afsonasining o'qitilishida interfaol yondashuvlar:

“Shiroq” afsonasida xalq fidoyiligi, vatan uchun jon fido qilish g'oyasi yetakchi o'rinni egallaydi. Dars jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- **“Rol o'ynash” metodi** — o'quvchilar Shiroq, lashkarboshi yoki dushman obrazlarini sahnalashtirib, voqealarni his etishadi.
- **“Debat” metodi** — “Shiroqning jasorati qahramonlikmi yoki fidoyilikmi?” mavzusida munozara uyushtirish orqali tanqidiy va mantiqiy fikrlash rivojlanadi.
- **“Sinkveyn” metodi** — asar qahramonlari haqida besh satrli she'riy ifoda orqali obrazga badiiy yondashuv shakllantiriladi.

Bu metodlar o'quvchilarning og'zaki nutqini, sahnaviy mahoratini va tahliliy fikrlashini kuchaytiradi.

Interfaol metodlarning afzalliklari

- O'quvchilar darsda faol ishtirok etadi;
- O'rganilayotgan afsonalar hayotiylik va badiiylik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinadi;
- O'z fikrini erkin ifoda etish, jamoada ishlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalari rivojlanadi;
- Vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'usi shakllanadi.

“To'maris” va “Shiroq” afsonalarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni nafaqat asar mazmunini chuqur anglashga, balki milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, jasorat va insoniylik g'oyalarini qalban his etishga undaydi. Interfaol darslar orqali o'quvchi shunchaki tinglovchi emas, balki fikrlovchi, izlovchi, ijodkor shaxsga aylanadi. Shu bois bu yondashuv 10-sinf o'zbek tili darslarida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari innovatsion texnologiyalar yordamida “Tomaris” va “Shiroq” afsonalarini o'qitish:

- o'quvchilarning **qiziqishini oshiradi**,
- ularni **faol ishtirokchiga** aylantiradi,
- **milliy qadriyatlar va jasorat** g'oyalarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Shunday qilib, texnologiya – bu faqat vosita emas, balki **afsonalarni zamonaviy ruhda**

jonlantiruvchi kuchli ko'prikdir.

Afsonalardagi qahramonlarni umumiy taqqoslama tahlil qilsak

Belgilar	“To'maris” afsonasi	“Shiroq” afsonasi
Mavzu	Ayol jasorati, erkinlik	Fidoyilik, sadoqat
Asosiy g'oya	Vatan uchun kurash	Vatan uchun jon fido
Qahramon	To'maris (malika)	Shiroq (mard yigit)
Kurash usuli	Ochiq jang	Hiyla, aql bilan g'alaba
Badiiy timsol	Ona Vatan himoyachisi	O'g'il Vatan fidoyisi
Ramziy ma'no	Ayol kuchi, g'urur	Erkak mardligi, sadoqat
Natija	G'alaba va adolat	O'lim, ammo ma'naviy yutuq



Xulosa qilib aytganda, To 'maris va Shiroq afsonalari — o'zbek xalqining **vatanparvarlik, jasorat va sadoqat** haqidagi eng qadimiy va muhim timsollaridir.

Ular o'quvchiga shuni o'rgatadi:

“Vatan uchun yashash — buyuk sharaf, Vatan uchun o'lish — abadiy nom.”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida”gi farmonlari.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Yo'ldoshev Q., Adabiyot ta'limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
5. Xolbekov M., Interfaol metodlar va ularning dars jarayonidagi ahamiyati, “Ta'lim” jurnali, 2022-yil, №3.